



ALISHER NAVOIY LIRIKASIDA BADIY
SAN'ATLARNING MOHIRONA QO'LLANILGANLIGI

Choriyev Nurbek Jumanazar o'g'li

Termiz davlat universiteti o'zbek

filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada g'azal mulkining sultoni Alisher Navoiy ijodi va unda foydalanilgan badiiy san'atlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Lirika, g'azal, radif va undagi xillar, qofiya uning turlari, raviy, badiiy san'atlar, husni ta'lil, tanosub, tajohil ul-orif, tamsil, tashbeh, talmeh, mubolag'a, ishtiyoq, ta'did, takrir, nido.

Alisher Navoiy lirikasining yuksak badiiyati va g'oyaviy chuqurligi o'zbek adabiyoti tarixida benazir hodisa sifatida baholanishi lozim. Bu adabiy meros nafaqat o'z davrida, balki bugungi zamon o'quvchisini ham chuqur hayratga soladi, ruhiy yuksalish bag'ishlaydi. Navoiy qalamiga mansub har bir misra — go'yo qalbning so'zlagan nidosi, insoniy kamolot sari chaqiruvdir. Alisher Navoiy lirikasining asosiy kuchi — uning inson qalbini, uning murakkab va nozik kechinmalarini nihoyatda nafis tarzda tasvirlay olishidadir. U o'z she'rlari orqali sevgi, sadoqat, fidoyilik, ruhiy iztirob va komil inson g'oyalarini shunchalik kuchli poetik ifoda bilan yetkazadiki, bu she'rlar bugun ham yuraklarga ohang beradi. Ayniqsa, Navoiy lirikasidagi tasviriy vositalarning rang-barangligi, majoz va ramzlarning chuqurligi o'quvchini o'ziga tortadi, fikrlashga,



anglashga, tafakkurga chorlaydi. Navoiy o'z asarlarida faqat shoir emas, balki ziyoli, ma'rifatparvar, o'z xalqining dardini yuragida his etgan mutafakkir sifatida ham namoyon bo'ladi. Uning lirikasida yurak amri bilan bitilgan har bir satr — bugungi kunda ham dolzarb bo'lib, jamiyatni yaxshilikka, ezgulikka, odob-axloqqa da'vat etadi. U har bir misrasi bilan nafaqat tuyg'ularni tarannum etadi, balki bir xalqning ruhiy-ma'naviy darajasini ko'taradi.

Ko`hi dard ichra meni Farhod agar qilding xitob,
Chun seni dermen chuchuk jonim erur Shirin laqab.

Talmeh (arabcha – nazar solmoq, ishora qilmoq) she'rda mashhur qissa, mashhur bayt yoxud mashhur maqol , mashhur tarixiy shaxs , tarixiy joy nomlariga ishora qilish usuli. Baytdagi Farhod va Shirin mashhur tarixiy shaxs va ular talmehni hosil qiladi .

Buki ko`nglumni iting tishlarda og`zin qochurur,
Yo o`ti yoxud aning islang`ani erkin sabab.

Mubolag`a (arabcha – bo`rttirish) misralarda keltirilgan muayyan holatlar, vaziyatga nisabtan hayot mantig`iga mos kelmaydigan fikr keltiriladi. Baytdagi “Ko`ngil olovidan itning uni tishlay olmaslik“ hodisasi mubolag`a bo`ladi.

Yor og`iz ochmasqa dardim so`rg`ali toptim sabab,
Ko`p chuchukliktin yopishmishlar magar ul ikki lab.

Yuqoridagi baytda: husni ta'lil, tanosub, tajohil ul-orif she'riy san'atlari qatnashgan . Husni ta'lil (arabcha – chiroyli dalillash)- shoir o`zining birorta fikri va maqsadini asoslash uchun munosib dalil keltiradi . Bu dalil shoir bayon qilgan fikr uchun real bo`lolmaydi, balki uni quvvatlash uchun keltirilgan poetik dalil hisoblanadi va shu sabab shoirning muddaosi bilan to`g`ridan to`g`ri emas, balki tashbihiy yoki istioraviy yo`sinda bog`lanib, uning fikrini quvvatlaydi. Baytdagi mashuqa labining shirinligidan



yopishib qolishi haqiqiy hayotda bo'lmaydi va bu shoirona dalillash, ya'ni husni ta'lil hisoblanadi. Keyingi she'riy san'at tanosubdir. Tanosub (arabcha – bir-biriga munosib) – she'riyatimizda keng qo'llanib kelingan, ba'zan “mutanosib”, “tavfiq“, “iytilof” kabi atamalar bilan ham yuritilgan. Bunda shoir o'z baytida ma'nodosh tushunchalarni, chunonchi: oy va quyosh, o'q va yoy, qosh va ko'z, gul va lola va shularga o'xshaganlar birga mislarda ishtirok etadi. Birinchi baytdagi og'iz va lab so'zlari tanosub she'riy san'atini hosil qiladi. Keyingi qatnashgan badiiy san'at- tajohil ulorif (arabcha – bilib-bilmaslikka olish). Bunda ko'pincha mumtoz she'riyatimizda, qisman hozirgi nazmda ham qo'llanilgan badiiy san'at, shoir keltirilgan voqea-hodisa, holatlarni bilib turadi, ammo bilmaslikka oladi, baytdagi labning shirinligidan yopishib qolmasligi aniq, lekin uni bilib-turib qayta so'raydi.

Chayqalib go'yo tushar hayvon zuloli uzra mavj,

Iztirob ichra yuzungga solsa chin nogoh g'azab.

Tamsil (arabcha – misol keltirish) – baytning birinchi misrasida ma'lum bir holat ifodalanadi va keyingi misrada unga muvofiq hayotiy misol keltirilgan bo'ladi . Baytdagi yorning yuzidagi chimirilish vaziyati dengizdagi to'lqinlarning chayqalishiga muqoyasa qilingan, holbuki, hayotda dengizda to'lqinlar muayyan chiziqlar asosida chayqaladi. Keyingi qatnashgan she'riy san'at tashbehdir. Tashbeh (arabcha – o'xshatish) – nazmiy va nasriy asar tilida ko'p qo'llaniladigan ma'naviy san'atlardan biri. Tashbeh ikki yoki undan ortiq narsa , hodisa , xususiyatlarni ular o'rtasidagi o'xshashlik , umumiylik (sifat , belgi yoki funksiya) nuqtai nazaridan qiyoslash . Baytda yorning yuzidagi chimirilishdan hosil bo'lgan chiziqlar dengizdagi chayqalgan to'lqinlarga o'xshatilgan.

Shah xarimida necha topsang, Navoiy, ehtirom,

Bilgil o'z haddingni -yu behad rioyat qil adab.



Nido – muayyan bir shaxs, narsa yoki voqea – hodisaga murojaat qilinish anglashiladi, u tilshunoslidagi undalma tushunchasiga mos keladi. Bu yerda Navoiy o`ziga murojaat etib, nido san`atini vujudga keltirgan.

Eyki, faqr ichra qadam qo`yding talab vodisig`a,

Bo`lmasa tolib sanga matlub, sud etmas talab.

Baytdagi talab, tolib, matlub so`zlari ham tanosub , ham ishtiyoq san`atining dalilidir hamda takrir badiiy san`ati ham mavjudligini ko`rishimiz mumkin . Takrir (arabcha – takrorlash) – so`zlar takroriga asoslangan san`at bo`lib , takrorga tayangan she`riy san`at . Misralardagi talab so`zining ikki o`rinda ishlatilganligini ko`rishimiz mumkin va bu takrir san`ati “ hosili “ sanaladi .

Ishq komil elni yo Farhod, yo Majnun qilur,

Gar erur ma`shuqi yoxud armaniy yoxud arab.

Baytdagi Farhod, Majnun timsollari talmehni, arab, arman so`zlari esa tanosubni hosil qilgan. Shu bilan birga, asosdosh so`zlardan foydalanish she`riy san`ati hisoblangan ishtiyoq badiiy san`ati ham ishtirok etgan . Ishtiyoq ( arabcha – so`zdan so`zni ajratmoq )- ma`lum bir asosdan yasalgan yangi bir so`zlar va ularning bir-biriga ma`noviy bog`liqligi tushuniladi, bu holat tilshunoslikdagi asosdosh so`zlar hodisasiga muvofiq keladi. Bu yerdagi “ishq“ va “ma`shuqa“ so`zlari ishtiyoq, negaki ma`shuqa so`zi ishq so`zidan yasalgan hamda bu so`zlarda ma`no yaqinligi mavjud . Shuningdek , baytda ta`did san`atining qatnashuvini ko`rishimiz mumkin . Ta`did ( arabcha – fikriy rivoj , ketma-ketlik) – sanalayotgan , ya`ni uyushiq bo`laklar asosida so`zlarning bir-biriga vazndosh , ohangdosh , qofiyadosh bo`lib qo`llanilishi . Baytdagi “ Yo Farhod , yo Majnun “ hamda “ Yoxud armaniy , yoxud arab” kabi birliklar ushbu she`riy san`atni hosil qilgan.



Demak, gʻazalni tahlil etishda undagi badiiy sanʼatlar asosiy goʻzallikni koʻrsatuvchi vositalardan biri sanaladi. Buyuk shoirning lirikasi – bu muhabbat va ilohiy ishqning, insonparvarlik va haqiqatparastlikning, gʻam-alam va sabr-toqatning yorqin ifodasidir. U har bir misrada yurakni junbushga keltiradigan samimiyatni, ruhiyatning nozik jilvalarini tasvirlaydi. Navoiy uchun sheʼr yozish shunchaki sanʼat emas, bu – xalq dardini his etish, qalblar tilida soʻzlashish, adolatni barqaror etish yoʻlida maʼrifiy kurash vositasi edi. Alisher Navoiy lirikasida tasavvufiy ruh kuchli. U koʻngil koʻzgusida Allohga yetishishni orzu qiladi, dunyoviy zavqlardan yuksak ilohiy muhabbatni ulugʻlaydi. Bu esa uni Sharq adabiyoti klassiklari qatorida alohida mavqega olib chiqadi. Shoirning “Hayrat ul-abror”, “Xamsa” dostonlari bilan birga, gʻazal va ruboiylari ham har bir oʻquvchining qalbiga yoʻl topadi. Bugungi kunda ham Navoiy ijodi – yosh avlodni ezgulikka, maʼrifatga, sabrga va halollikka chorlaydigan buyuk maktabdir. Uning lirikasini oʻrganish – bu oʻzligimizni anglash, milliy gʻururimizni mustahkamlash demakdir. Shu bois Alisher Navoiy nomi va ijodi hech qachon unutilmaydi. Aksincha, yildan-yilga qadri ortib, xalqimizning maʼnaviy yoʻlboshchisiga aylanib bormoqda. Shunday ekan, Navoiy lirikasini faqat tarixiy yodgorlik deb emas, balki bugungi kun uchun ham dolzarb, hayotbaxsh manba sifatida qadrlashimiz zarur. Uning gʻazallarini nafaqat oʻqib, balki maʼnosini anglab, uqib olishimiz darkor, shoirning asarlari boqiy va bardavom yashagay, albatta. Zero, ulugʻ adibning qalamidan toʻkilgan ushbu asar adabiyot xazinasining goʻzal laʼl-u javohiridir!

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Toʻxta Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. Oʻzbekiston nashriyoti. Toshkent-2002.
2. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish . Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent- 2004.